

Zarafshon

Fidoyilik – Vatanga xizmat demak!

2024-yil 8-oktabr, seshanba,
116 (23.993)-son

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

www.zarnews.uz https:/www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews_uz https:/twitter.com/zarnews_uz

KUN HIKMATI

Rost gapirishdan ko‘ra osonroq bo‘lgani uchun ham yolg‘on gapiramiz

Prezident qaroriga ko‘ra

Mehnat huquqlari ta’minlanganlik holati baholanadi

Prezidentning “Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik sohasida davlat siyosatini takomillashtirish va samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan inson resurslarini rivojlantirish va mehnat bozorini isloh qilish orqali kambag‘allikni qisqartirishning yangi vazifalari belgilandi.

Jumladan, hujjat asosida Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi tugatilib, uning shtat birligi, vazifa va mol-mulki Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligiga o‘tkazildi.

Vazirlikning tuman bo‘limlariga tuman hokimligi hamda mahalla fuqarolar yig‘inlari o‘rtasida mahallalarda kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha uch tomonlama “mahalla shartnoma”larini tuzish vakolati berildi. Bunda ushbu shartnomada vazirlik tuman bo‘limi va hokimiyat – infratuzilmani yaxshilash, aholining daromad manbaini oshirishga sharoit yaratishga, mahalla raisi – aholini ishga jalb qilish, hududni obodonlashtirish, jinoyatchilikni kamaytirish kabi vazifalarga mas’ul bo‘ladi.

Ishsiz va kambag‘al aholini ichki va tashqi mehnat bozori talablariga mos bo‘lgan kasblarga o‘qitish maqsadida “Ishga marhamat” monomarkazlari va kasb-hunarga o‘qitish markazlari negizida kasbiy ko‘nikmalar markazlari tashkil etiladi. Markazlarda ish beruvchilar talabiga moslashtirilgan ekspress kurslar tashkil etiladi hamda amaliy ko‘nikmalarni bevosita ish joyida shakllantirish tizimi yaratiladi. Shuningdek, ularda 2025-yil 1-maydan xalqaro tan olingan dasturlar joriy qilinadi va 2026-yildan xorijda tan olinadigan sertifikatlar berilishi yo‘lga qo‘yiladi.

Qarorga ko‘ra, joriy yilning 1-noyabridan boshlab Davlat mehnat inspeksiyasi va uning hududiy bo‘linmalari tomonidan mehnat huquqlari va mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etilishi yuzasidan tekshiruvlar tekshiruv boshlangan paytdan boshlab tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakilni xabardor qilgan holda o‘tkaziladi. 2025-yil 1-martdan esa Davlat mehnat inspeksiyasi va uning hududiy bo‘linmalari mansabdor shaxslariga mehnat huquqlari va mehnatni muhofaza qilish, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish, aholi bandligi to‘g‘risidagi qonunchilik talablarini bajarmaganligi uchun kameral nazorat o‘tkazish vakolati beriladi.

Mulkchilik shaklidan qat’i nazar, barcha tashkilotlarda mehnat huquqlari va mehnat muhofazasi ta’minlanganlik holati onlayn reyting asosida baholanadi.



Samarqand davlat chet tillar instituti “Kambag‘allikdan farovonlik sari” umummilliy dasturi doirasida Qo‘shrabot tumani markazi va Jo‘sh qishlog‘ida xorijiy tillarni o‘rgatadigan o‘quv markazlari tashkil etdi.

Ushbu markazlarda kam ta’minlangan oilalar farzandlari, xorijiy davlatlarga ishlash maqsadida ketayotgan fuqarolarga institut pedagoglari tomonidan ingliz, nemis va koreys tillari bepul o‘qitiladi.

O‘quv markazlar uchun 82-umumta’lim maktabi va Jo‘sh mahallasidagi kasb-hunar kolleji binosidan xonalar ajratildi.

– Xonalar ta’mirlanib, zarur jihozlar, o‘quv adabiyotlari, ko‘rgazmali vositalar, zamonaviy axborot texnologiyalari bilan ta’minlandi, – deydi Samarqand davlat chet tillar instituti kafedra mudiri Muxiddin Esirgapov. – Markazlarda mashg‘ulot olib borish uchun 6 nafar mutaxassis ajratildi. Ularga institut tomonidan ish haqi to‘lanadi. O‘qituvchilarimiz haftada uch kun kelib, mashg‘ulot o‘tadi. Har ikki haftada markaz tinglovchilarining bilimi maxsus o‘qituvchilar tomonidan nazoratdan o‘tkaziladi. Til bilish darajasini aniqlash uchun sinovlar uyushtiriladi. Bundan tashqari, sog‘liqni saqlash vazirligi va tashqi mehnat migratsiyasi agentligi bilan kelishuvimizga ko‘ra, Germaniyada tibbiyot sohasida ishlash uchun talabgorlarga nemis tili o‘rgatamiz va ular belgilangan til bilish darajasini olish uchun sinovdan o‘tadi.

Qo‘shrabotlik yoshlarga professor-o‘qituvchilar til o‘rgatadi



Markazlarning ish boshlashi munosabati bilan o‘tkazilgan tadbirlarda viloyat hokimi o‘rinbosari H.To‘xtayev, Samarqand davlat chet tillar instuti rektori B.Xoliqov va Qo‘shrabot tumani mas’ullari ishtirok etib, muassasalarda yaratilgan sharoit va imkoniyatlar bilan tanishdi.

– Ikki qizimni ingliz tili kursiga bergandim va har oyda 200 ming so‘mdan ziyod pul to‘lashimga to‘g‘ri kelardi, – deydi Jo‘sh mahallasida yashovchi Sayyora Usmonova. – Lekin hamma



vaqt ham bunga imkoniyatim bo‘lmasdi. Samarqand davlat chet tillar instituti tomonidan bepul o‘quv kurslari tashkil etilganini eshitib, farzandlarimni shu yerga berdim. Darslarni institut o‘qituvchilari o‘tar ekan. Bu o‘quvchilar uchun juda katta imkoniyat.

B.MUSTANOV.

Terim mashinalari ko‘paymoqda

Joriy yilda viloyatimiz paxtakorlari tomonidan mahalliy navlar bilan birgalikda Xitoy, Turkiya va Hindiston davlatlaridan keltirilgan serhosil 7 nomdagi xorijiy g‘o‘za navi 7,3 ming gektar maydonda parvarishlandi.



Import qilingan navlarni parvarishlashda agrotexnik tadbirlarni amalga oshirish maqsadida Xitoydan ikki nafar doimiy maslahatchi va uch nafar qisqa muddatli seleksioner-agrotexnolog olimlar jalb qilindi. Oldimizga qo‘yilgan maqsadimiz paxta hosildorligini o‘tgan yilga nisbatan gektariga o‘rtacha 2,5 sentnerga oshirib, 38 sentnerga yetkazishdir.

Bu yilgi mavsumdagi o‘zgarishlardan yana biri yetishtirilgan paxta hosilining 25 foizini (2023-yil 21 foiz edi) mexanizatsiya yordamida yig‘ib olishdir.

Viloyatda hozirgacha 54 ta fermer xo‘jaligi oldiga qo‘ygan vazifani bajardi. O‘rtacha hosildorlik 38-40 sentnerni tashkil qilmoqda.

Misol uchun, Narpay tumanida 23 ta (gektariga 40 sentner), Paxtachida 10 ta (40,1 sentner), Kattaqo‘rg‘onda 2 ta (40,1 sentner), Past Darg‘om va Payariq tumanlarida 6 tadan (39,1 sentner) fermer xo‘jaligi shartnomaviy rejani bajardi. Yig‘im-terim ishlarida 137,4 ming nafar terimchi hamda 54 ta paxta terim mashinasi qatnashmoqda.

Bundan tashqari, mavsum avvalida Ishtixon, Payariq (4 tadan), Oqdaryo (3 ta), Kattaqo‘rg‘on va Past Darg‘om (2 tadan) tumanlaridagi fermer xo‘jaliklari Xitoyda ishlab chiqarilgan, har biri 3 milliard 600 million so‘m bo‘lgan “Boshiran” markali paxta terish mashinalarini lizing asosida xarid qilishdi. Ushbu 4 qatorli terim mashinalari paxtani toza teradi va yoqilg‘i sarfi kam, barcha zamonaviy vositalar bilan ta’minlangan, mexanizatorga qulay holda ishlab chiqarilgan. Hozirda terim ishlarida “KEYS”, “John Deere”, MX-1,8, TZST CE220, “Boshiran” va boshqa terim mashinalari yordamida kuniga o‘rtacha 22 tonnadan ortiq hosil terib olinmoqda.

Viloyat qishloq xo‘jalik boshqarmasi axborot xizmati.

Mavsum

Saylov – 2024

Nomzodlar faol tashviqot olib bormoqda

«Milliy tiklanish» demokratik partiyasidan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod Azamat Pardayev Bulung‘ur tumanida o‘zining navbatdagi saylovoldi tashviqoti uchrashuvlarini o‘tkazdi.

Nomzodning ishonchli vakili tomonidan saylovchilarga uning tarjimai holi va mehnat faoliyati to‘g‘risida batafsil ma’lumot berildi. Nomzod saylovchilarni o‘zining saylovoldi dasturi, partiya tomonidan ilgari surilayotgan asosiy g‘oyalar, jumladan, davlat tilini himoya qilish va rivojlantirish, ta’lim sohasida yangi avlod pedagog kadrlarini tayyorlash, turizmni rivojlantirish, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash kabi bir qator tashabbuslari bilan tanishtirdi.

Uchrashuvlarda saylovchilarni qiziqtirgan savollarga javoblar qaytarilib, hududni yanada rivojlantirish yuzasidan ularning takliflari eshitildi.

Partiyadan ko‘rsatilgan nomzodlarning Urgut tumani madaniyat markazidagi saylovoldi tashviqot uchrashuvida Saylov kodeksi va partiya saylovoldi dasturi haqida to‘planganlarga batafsil ma’lumot berilib, saylov qonunchiligiga kiritilgan yangiliklardan xabardor etildi.

"Milliy tiklanish" DP viloyat kengashi matbuot xizmati.

Saylovchilar bilan uchrashuv qizg‘in o‘tmoqda

Butun dunyo hamjamiyatini tashvishga solayotgan yirik ekologik muammolardan biri sanalgan iqlim o‘zgarishiga qarshi birgalikda kurashish O‘zbekiston Ekologik partiyasining saylovoldi dasturidan o‘rin olgan.

Shu bois nomzodlar bilan uchrashuvlar qizg‘in bahs-munozaraga boy tarzda o‘tmoqda. O‘zaro muloqot tarzida o‘tayotgan tadbirlarda aholini qiynayotgan muammolar umumlashtirilib, ularning yechimi yuzasidan aniq chora-tadbirlar belgilanmoqda.

Bulung‘ur tumanidagi Qirqshodi mahallasida bo‘lib o‘tgan uchrashuvda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy kengashlarga nomzodlar partiyaning saylovoldi dasturidan o‘rin olgan taklif va tashabbuslar, o‘zlarining saylovoldi dasturi haqida batafsil ma’lumot berishdi.

Tadbir so‘ngida saylovchilar sog‘lom kelajak uchun, tabiat uchun birlashishga kelishib olishdi.

Shunday tadbirlardan biri yana biri Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod Jahongir To‘xtayev tomonidan Jomboy tumanida tashkil etildi. Nomzod saylovchilarni qiziqtirgan savollarga batafsil javob berdi.

Umuman, partiya tomonidan saylovoldi targ‘ibot tadbirlarida noan’anaviy yondashuvlar, targ‘ibot tadbirlarining yangi usul va tartiblaridan foydalanishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, aholi gavjum maskanlar, dehqon va buyum bozorlari, yirik supermarketlar, mahallalarda targ‘ibot, tashviqot tadbirlari o‘tkazilib, targ‘ibot materiallari tarqatilmoqda.

Ekologik partiya viloyat kengashi matbuot xizmati.

“Adolat”chilar bulung‘urlik saylovchilar huzurida

“Adolat” sotsial-demokratik partiyasidan ko‘rsatilgan nomzodlar har bir saylov okrugida saylovchilar bilan yuzma-yuz muloqotlar o‘tkazib, ularning ishonchini qozonishga harakat qilmoqda.

Shunday uchrashuvlardan biri Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga ko‘rsatilgan nomzod Manzura Saydullayeva, xalq deputatlari viloyat kengashiga nomzod Noila Xo‘janova hamda xalq deputatlari Bulung‘ur tuman kengashi deputatligiga nomzodi ko‘rsatilgan Zohida Ortiqova ishtirokida tuman tibbiyot birlashmasida bo‘lib o‘tdi.

- Uchrashuv davomida partiya faoliyati va nomzodlar saylovoldi dasturi bilan tanishdik, - deydi Bulung‘ur tumanidagi 22-umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisi Hayitgul Musoyeva. - “Adolat” partiyasi haqiqatan ayollar va yoshlar partiyasi ekan. Birgina nomzodimizning o‘z saylovoldi dasturida xotin-qizlar muammolarini o‘z vaqtida aniqlash, ayniqsa, og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga, shu jumladan, nogironligi bo‘lgan ayollarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy yordam ko‘rsatish choralarini kuchaytirish, tug‘ish yoshidagi va homilador ayollarga hamda bolalarga davlat tomonidan bepul beriladigan vitaminlar, yod va foliy kislotasining o‘z vaqtida va to‘liq ajratilishini ta’minlash ustidan parlament va deputatlik nazoratini o‘rnatish kabi tashabbuslari ma’qul bo‘ldi.

Tadbirda yig‘ilganlar o‘zlarini qiziqtirgan savollarga nomzodlardan atroflicha javoblar oldilar.

“Adolat” SDP viloyat kengashi matbuot xizmati.

DAVLAT FUQAROLIK XIZMATI – KECHA ◆ va ◆ BUGUN”



Prezidentimizning 2019-yil 3-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni hamda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlariga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi (ARGOS) tashkil etildi.

Tashkil etilgan yangi tashkilotga davlat fuqarolik xizmati sohasida yagona siyosatni amalga oshirish, davlat tashkilotlarining davlat kadrlari siyosati sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish, xodimlarni boshqarish va inson resurslarini rivojlantirishning innovatsion usullarini joriy etish, davlat fuqarolik xizmatiga ochiq mustaqil tanlov asosida qabul qilishni tashkillashtirish, davlat fuqarolik xizmatchilarining faoliyati samaradorligini baholash (KPI) tizimini joriy etish, milliy kadrlar zaxirasini boshqarish, davlat fuqarolik xizmatchilarining huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish kabi vazifalar yuklatildi.

Agentlikning davlat fuqarolik xizmati sohasida yagona siyosatni amalga oshirish vakolati 2022-yil 8-avgustdagi davlat fuqarolik xizmati sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonuni bilan mustahkamlandi.

“Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonunning 27-moddasida davlat fuqarolik xizmatiga kirish tanlov asosida amalga oshirilishi, 29-moddasida davlat fuqarolik xizmatining bo‘sh turgan lavozimini egallash maxsus vakolatli davlat organi, ya’ni Davlat xizmatini rivojlantirish agentligining axborot tizimi (vacancy.argos.uz portali) orqali o‘tkaziladigan tanlovlar asosida amalga oshirilishi qat’iy belgilandi.

Yuqoridagi talabdan kelib chiqib, Davlat fuqarolik xizmati vakant lavozimlari e’lon qilinadigan yagona ochiq portal - vacancy.argos.uz yaratildi. Portalga viloyatdagi 45 ta boshqarma hamda ularning 350 ta quyi bo‘linmalari hamda mahalliy hokimliklar ulandi.

Agentlikning Samarqand viloyati filiali tomonidan shu kunga qadar viloyat bo‘yicha vakant lavozimlar uchun 17 mingdan ziyod ochiq tanlov o‘tkazildi. Ochiq tanlovlarda ishtirok etgan 310 mingdan ziyod nomzodning hujjatlari tanlov e’lon qilgan tashkilotlarning inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish xodimlari tomonidan sinchkovlik bilan o‘rganilib, malaka talablarini o‘rganish, test va suhbat bosqichlaridan muvaffaqiyatli o‘tgan hamda tanlov g‘oliblari deb topilgan 7 mingga yaqin kishi davlat fuqarolik xizmatiga ishga qabul qilindi.

Agentlikning vazifalaridan biri hisoblangan ochiqlik, professionallik va hisobdorlik tamoyillariga asoslangan xodimlarni boshqarish va inson resurslarini rivojlantirishning innovatsion usullarini joriy etish borasida ham ko‘plab samarali ishlar olib borildi.

Ma’lumki, Prezidentimizning 2022-yil 11-maydagi "Davlat boshqaruvi sohasidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarorida kadrlar bilan ishlash yo‘nalishidagi byurokratik to‘siqlarni, korrupsiyaviy xavf-xatarlar va inson omilini qisqartirishga qaratilgan avtomatlashtirilgan tizimni joriy etish, xususan, vakant lavozimlarni e’lon qilishdan tortib, tanlov o‘tkazish va ishga qabul qilish natijalari bo‘yicha hujjatlarni rasmiylashtirishgacha bo‘lgan jarayonlarni to‘liq elektron tarzda amalga oshirish belgilangan.

Yurtboshimizning tegishli farmon va qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida xorijiy ilg‘or tajribalardan kelib, vazirlik va idoralar hamda mahalliy ijro hokimliklaridagi inson resurslarini boshqarish faoliyatini to‘liq raqamlashtirish uchun hrm.argos.uz inson resurslarini boshqarishning yagona elektron axborot tizimi yaratildi.

Natijada vakant lavozim uchun tanlovdan tortib, kadrlarga oid barcha hujjatlarni yuritish faqatgina hrm.argos.uz platformasida amalga oshiriladigan bo‘ldi.

Buning uchun platforma vacancy.argos.uz, zaxira.argos.uz, samaradorlik.uz, e-qaror.gov.uz, e-huquqshunos.uz dasturiy ta’minotlar bilan integratsiya qilindi. Shuningdek, my.mehnat.uz, edo.ijro.uz va UzASBO tizimlariga hujjatlar avtomatik ravishda yuborilishi ta’minlandi.

Davlat organlarida hrm.argos.uz elektron platformasini yuritish tartibi Vazirlar Mahkamasining 492-sonli qarori bilan tasdiqlanib, 2023-yil 1-noyabrdan boshlab HRga oid barcha hujjatlarni hrm.argos.uz platformasida shakllantirish va yuritish uchun davlat organlari rahbarlarining shaxsan mas’ulligi belgilandi.

Agentlikning Samarqand viloyati filiali tomonidan viloyatdagi davlat organlari va tashkilotlari hamda ularning quyi bo‘linmalari, shuningdek, mahalliy hokimliklarda davlat fuqarolik xizmatiga ochiq mustaqil tanlov asosida ishga qabul qilish, mehnat qonunchiligiga oid barcha hujjatlarni belgilangan elektron platformada yuritish, davlat fuqarolik xizmatchilarining ish beruvchilar bilan o‘zaro munosabatlarida ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasida “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonunning 26-moddasiga asosan monitoring ishlari olib borilmoqda.

Shu vaqtgacha olib borilgan 125 ta monitoring hamda 14 ta kompleks o‘rganishlar natijasiga ko‘ra aniqlangan qonunbuzilish holatlari bo‘yicha 97 ta ogohlantirish va 78 ta taqdimnomalar kiritilgan. Shuningdek, 67 nafar mansabdor shaxsga nisbatan mutasaddi idoralar bilan hamkorlikda 133,5 million so‘m miqdorida ma’muriy jarima qo‘llanilgan.

Natijada 167 nafar xodimning ishga noqonuniy olinganligi aniqlanib, barchasining o‘rniga ochiq mustaqil tanlov asosida munosib kadrlarning ishga olinishiga erishildi.

Xulosa o‘rnida shuni eslatib o‘tmoqchimizki, davlat fuqarolik xizmati tatbiq qilinadigan davlat organlari va tashkilotlarining hududiy boshqarmalari hamda ularning tuman (shahar) bo‘limlaridagi ma’muriyat lavozimlariga xodimlarni tanlovlarsiz, to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishga qabul qilish, shuningdek, mehnat qonunchiligiga oid barcha hujjatlarni belgilangan elektron platforma (hrm.argos.uz)da yuritmaslik, davlat fuqarolik xizmatchilarining ish beruvchilar bilan o‘zaro munosabatlarida ularning huquq va qonuniy manfaatlariga zid bo‘lgan buyruq va qarorlarni qabul qilish belgilangan qonun talablarining buzilishi hisoblanib, rahbarlarga nisbatan tegishli choralar ko‘rilishiga sabab bo‘ladi.

Foziljon AXATOV,
Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi viloyat filiali bosh inspektori.

Qo‘llab-quvvatlash ishonchni oshiradi

Prezidentimizning joriy yil 26 avgustda qabul qilingan "Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi farmoniga ko‘ra, fuqarolik jamiyati institutlariga davlat subsidiyalari, grantlar va ijtimoiy buyurtmalarni ajratish bilan bog‘liq barcha jarayonlar shaffof shaklga o‘tkaziladi.

Farmonda ta’kidlanishicha, parlament huzurida Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi va uning hududiy bo‘linmalari tashkil etilib, ijtimoiy loyihalarning manzilliligi ta’minlanadi, byurokratiyaga chek qo‘yiladi.

Fuqarolik jamiyati institutlariga davlat subsidiyalari, grantlar va ijtimoiy buyurtmalarni ajratish bilan bog‘liq barcha jarayonlarning shaffofligini ta’minlashga qaratilgan yagona elektron platforma ishga tushiriladi.

Ya’ni, ijtimoiy sheriklikni rivojlantirishga qaratilgan quyidagi mexanizmlar joriy etilmoqda:

- har yili davlat organlari ijtimoiy buyurtma tanlovlari hamda fuqarolik jamiyati institutlari vakillari bilan ochiq muloqot o‘tkazadi;

- davlat organlariga fuqarolik jamiyati institutlarining tashabbusli ijtimoiy sheriklik loyihalarini bazaviy hisoblash miqdorining ming baravarigacha tanlovlarsiz moliyalashtirish huquqi beriladi;

- har yili hukumat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari ijrosiga fuqarolik jamiyati institutlarini ijtimoiy sheriklik asosida jalb qilish bo‘yicha dastur qabul qiladi.

Ijtimoiy ahamiyatga molik faoliyatni ommalashtirish maqsadida fuqarolik jamiyati institutlariga davlat grantlari va ijtimoiy buyurtma loyihalari doirasida daromad solig‘i va ijtimoiy soliq stavkalari 3 yil muddatga 50 foizga kamaytirilmoqda. 2025-yil 1-yanvardan boshlab nogironlar, faxriylar, xotin-qizlar va bolalar tashkilotlarini ro‘yxatdan o‘tkazish uchun undiriladigan davlat boji 2 baravarga qisqartirilyapti.

Homiy tashkilotlarning ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarga xayriya pulining soliq solinmaydigan miqdori amaldagi 15 million so‘mdan 34 million so‘mgacha (BHMning 100 baravari) oshirilmoqda.

Ta’kidlash joizki, fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish jarayonida shaffoflik, davlatning fuqarolik jamiyati institutlariga nisbatan olib borayotgan siyosati, mablag‘larni taqsimlash, grantlar va boshqa resurslarga oid ma’lumotlarning ochiqligi muhim ahamiyatga ega.

Shu bois 2024-yil 1-oktyabrdan boshlab Raqamli texnologiyalar vazirligi Oliy Majlis huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi bilan birgalikda fuqarolik jamiyati institutlariga davlat subsidiyalari, grantlar va ijtimoiy buyurtmalarni ajratish bilan bog‘liq barcha jarayonlarning shaffofligini ta’minlashga qaratilgan, asosiy imkoniyatlarni nazarda tutuvchi yagona elektron platforma ishga tushiriladi.

Platformaga ko‘ra, fuqarolik jamiyati institutlari va keng jamoatchilik tanlovlar yo‘nalishlarini shakllantirish hamda ularning muhokamasida bevosita ishtirok etadi. Tanlovlarda ishtirok etish uchun loyihalarni topshirish va davlat subsidiyasini olish uchun buyurtmalarni yuborish, ularni ko‘rib chiqish va baholash jarayonlari kuzatib boriladi. Tanlov ishtirokchilaridan talab etiladigan hujjatlar davlat organlarining ma’lumotlar bazalariga integratsiya qilish orqali onlayn qabul qilinadi.

Bu esa davlat tomonidan fuqarolik jamiyati institutlariga shaffoflikni ta’minlash, grant tanlovlarida ishtirok etish, mablag‘larning samarali taqsimlanishida qo‘l keladi. Qolaversa, davlatning fuqarolik jamiyati institutlari bilan bo‘lgan munosabatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarning ochiqligini ta’minlaydi, mas’uliyatni oshiradi, yangi loyihalarni amalga oshirish uchun resurslarga erishish imkoniyatini yaratadi.

Umuman olganda, fuqarolik jamiyati institutlari davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanganda shaffoflik prinsipi har ikki tomon uchun ham manfaatli. Bu nafaqat ishonchni oshiradi, balki samarali hamkorlikka asos bo‘ladi.

Fotih RAHMATOV,
Demokratik jarayonlarni tahlil qilish markazi viloyat hududiy bo‘linmasi bosh mutaxassisi.

Keyingi yillarda yangi oliy ta’lim muassasalarining ochilishi, qabul kvotalarining oshirilishi talabalar turarjoyiga bo‘lgan ehtiyojning ortishiga sabab bo‘ldi. Bu muammoning yechimi sifatida 2021-yil 9-sentabrda Vazirlar Mahkamasining “Respublika oliy ta’lim muassasalarida talabalarni turarjoy bilan qamrab olish darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilinib, davlat-xususiy sheriklik asosida talabalar turarjoylari qurishga ruxsat berildi. 2022-2025-yillarda viloyatdagi oliy ta’lim muassasalarida davlat-xususiy sheriklik asosida jami 25 ta talabalar turarjoyi qurish belgilandi.

TALABALARNI QIYNAYOTGAN TURARJOY MUAMMOSI

qanday hal bo‘lyapti?



Bundan tashqari, talabalarni turarjoy bilan ta’minlash maqsadida oliy ta’lim muassasalari yaqin mahallalar bilan hamkorlikda ijara uylari topish, talabalarni ijara uylariga joylashtirish kabi faoliyat bilan ham shug‘ullanyapti. Xo‘sh, bugun viloyatdagi oliy ta’lim muassasalarida talabalar turarjoyiga bo‘lgan talab qay darajada qondirilyapti? Haqiqatda talabalar turarjoylari qurilyaptimi? Shu kabi savollarga oliy o‘quv yurtlaridan javob izladik.

Samarqand davlat chet tillar institutidagi 5 ta talabalar turarjoyi 2020 o‘ringa mo‘ljallangan. Institutda 11594 nafar talaba bo‘lsa, ulardan 8289 nafari kunduzgi ta’lim shaklida tahsil oladi. Ularning 2020 nafari talabalar turarjoyida, 3073 nafari o‘z uyi yoki yaqin qarindoshinikida istiqomat qiladi. Turarjoyga ehtiyoji bor talabalar uchun institut atrofidan 700 ga yaqin ijara xonadonlari tayyorlanib, talabalar joylashtirilgan.

Shuningdek, institutda talabalarni ijara xonadonlariga va talabalar turarjoylariga joylashtirish uchun markaz faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Markaz xodimlari institut yaqinidagi mahallalar bilan hamkorlikda zaxira ijara xonadonlarini topishda yordam bermoqda.

Bundan tashqari, institutning Samarqand shahar Gagarin ko‘chasi 43-uy manzilidagi hududida davlat-xususiy sheriklik asosida 400 o‘ringa mo‘ljallangan talabalar turarjoyi qurilmoqda.

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida shu kunga qadar 850 o‘rinli ikkita talabalar turarjoyi mavjud edi. Yangi o‘quv yilida davlat-xususiy sheriklik asosida 400 o‘rinli uchinchi talabalar turarjoyi foydalanishga topshirildi. Shuningdek, universitet hovlisida yana davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida 300 o‘rinli talabalar turarjoyi qurilmoqda.

Bugungi kunda universitetda 3878 nafar talaba tahsil olmoqda. Ularning 1250 nafari talabalar turarjoyida istiqomat qilsa, 573 nafari ijara xonadonlarida, qolganlari o‘z xonadoni yoki qarindoshining uyida yashaydi.

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika institutida 10465 nafar talaba bo‘lsa, 6388 nafari kunduzgi, 1451 nafari kechki, 2415 nafari sirtqi ta’lim shaklida o‘qiydi. Institutda 1200 o‘rinli 4 ta talabalar turarjoyi mavjud. Talabalarning turarjoyga bo‘lgan ehtiyojini qondirish maqsadida davlat-xususiy sheriklik asosida 400 o‘rinli talabalar turarjoyi qurilmoqda va joriy yilning oktabr oyida foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan.

Mavjud barcha talabalar turarjoylarida oshxona, kir yuvish xonalari, yuvinish xonalari va hojatxonalar yangidan dizayn qilinib, jihozlangan. Talabalarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida har bir yotoqxonada ma’naviyat, tikuvchilik, kompyuter, sport zal va tibbiyot xonalari mavjud. Turarjoylar sig‘imidan kelib chiqib, 660 ta o‘rin qizlar, 190 ta o‘rin o‘g‘il bolalar va 350 ta o‘rin turli imtiyozga ega talabalar uchun ajratilgan.

Institutda “Talabalar turarjoylari va ijara xonadonlari bo‘yicha ma’lumotlar markazi” tashkil etilgan bo‘lib, bugungi kunga qadar mazkur markazga yotoqxonalar bo‘yicha 1033 ta, ijara xonadonlari bo‘yicha 862 ta ariza kelib tushgan. Institut yaqinida joylashgan 203 ta ijara uylari haqida ma’lumotlar bazasi shakllantirilgan. 2000 dan ortiq talaba ijara xonadonlariga joylashtirilgan.

Afsuski, davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida qurilishi rejalashtirilgan talabalar turarjoylarining hammasi ham muammosiz, vaqtida qurilayotgani yo‘q. Masalan, Samarqand iqtisodiyot va servis institutida yuqorida keltirilgan qarorga ko‘ra, 2022 va 2024-yillarda davlat-xususiy sheriklik asosida 2 ta, ya’ni o‘z hududida hamda viloyat hokimligi tomonidan ajratilgan yer maydonida 1 tadan talabalar turarjoyi qurilishi belgilangan. Mazkur qaror ijrosini ta’minlash maqsadida 2022-yilda qurilishi rejalashtirilgan talabalar turarjoyi uchun institutning Samarqand shahri, Shohrux ko‘chasi 41-uy manzilidagi o‘z hududidan 0,3 ga yer maydoni ajratilgan. Mazkur hududda joylashgan institut binosi (magistratura bo‘limi binosi) tarixiy bino ekanligi sababli qurilishga ruxsat berilmagan. Mazkur hududda ikki qavatdan baland bino qurilishi mumkin emasligi ma’lum bo‘lgach, 400 o‘rinli talabalar turarjoyi qurilmagan.

Shuningdek, qarorga asosan institutga viloyat hokimligi tomonidan 1,5 kilometr masofada davlat-xususiy sheriklik asosida talabalar turarjoyi qurish uchun joy ajratilishi belgilangan. Ammo hozirgi kunga qadar yer maydoni masalasi yechilmaganligi sababli o‘z hududidan yer maydoni ajratadigan salohiyatli tadbirkorlarni jalb qilish ishlari olib borilyapti.


Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-sentyabrdagi 563-sonli qaroriga asosan, davlat oliy ta’lim muassasasining buyurtmasi va tadbirkorlik sub’ektining tashabbusi asosida tadbirkorga tegishli yer maydoni yoki binoda kamida 50 o‘rinli talabalar turarjoylarini tashkil etish tizimini joriy etish belgilangan. Aynan shu maqsadda “Samarqand Sheben klass” MChJ tomonidan Samarqand shahar Rudakiy ko‘chasi 229-uy manzilida 600 va 240 o‘rinli talabalar turarjoyini institut talabalari uchun qurish loyihasi tayyorlangan. Ushbu MChJ bilan hamkorlikda talabalar turarjoyi binosini qurish va jihozlash konsepsiyasi hamda tadbirkor mulkidan foydalanish to‘g‘risidagi bitimlar rasmiylashtirilgan. Yuqoridagi MChJ yotoqxonaning 240 o‘rinli qismini 2023-2024-o‘quv yilida foydalanishga topshirgan, qolgan qismini joriy yilning yakuniga qadar foydalanishga topshirishni rejalashtirmoqda.

Institutda 2024-2025-o‘quv yilida jami 8847 nafar talaba tahsil olmoqda. Shundan 3636 nafari kunduzgi ta’lim yo‘nalishida o‘qiydi. Institutda hozircha bitta - 375 o‘rinli talabalar turarjoyi mavjud.

Davlat-xususiy sheriklik asosida qurilishi belgilangan talabalar turarjoylarining barchasi qurib, foydalanishga topshirilsa, viloyatdagi oliy ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan talabalarning turarjoyga bo‘lgan ehtiyoji qisman qoplanadi. Har holda oliy ta’lim muassasalarining 40-50 foiz talabalari yotoqxona muammosidan qutuladi.

Xurshida ERNAZAROVA,
“Zarafshon” muxbiri.

30 yil kutganimiz 3 yilda bo‘libdi



E’tirof

Samarqandning Urgut tumanida tug‘ilib o‘sganman, shu yerda maktabni tugatdim. Keyin universitetda tahsil olib, “Zarafshon” gazetasida ishladim. Keyingi hayot yo‘lim va faoliyatim Angliya bilan bog‘langan ekan. Mana, qariyb 20 yildirki, o‘sha yerda yashayman, ishlayman. Samarqandga, qarindosh-urug‘, do‘stlarimni ko‘rishga tez-tez bo‘lmasa-da, har ikki-uch yilda bir kelib turardim. Bu yil ham ta’tilni Samarqandda o‘tkazish nasib etdi.

To‘g‘risi, Samarqandda o‘tgan bu galgi ta’tilim esda qolarli bo‘ldi. Samarqand, o‘zim tug‘ilib o‘sgan Urgut tumanidagi o‘zgarishlardan hayratlandim. Qisqa muddatda Samarqandda bunday katta yangiliklar sodir bo‘lganidan zavqlandim.

Aslida aeroportdan boshlandi. Ilgarigi tekshiruvlar, senga xuddi dushmanday qarashlar yo‘qolgan. Yo‘lovchilarga “Xush kelibsiz, yaxshi boring” degan chiroyli muomalani ilgari tasavvur ham qilolmasdik.

Kelganimdan so‘ng qishlog‘imizda, odamlar yashash tarzidagi o‘zgarishlar yaqqol ko‘zga tashlandi. Ilgarigiday, uylarni faqat har zamonda keladigan mehmonlar uchun qurmaydigan bo‘lishibdi. Ixcham, qulay, bolalar uchun ham ajratilgan xonalari mavjud, hojatxona, yuvinadigan xonalari bor, oshxonasida issiq-sovuq suv qilib, sharoit yaratib olgan ko‘pchilik. Ancha yil qishlog‘imda bo‘lmaganim uchunmi, bu yangiliklar men uchun katta natijaday tuyuldi, lekin qishloqdoshlarim bunga allaqachon ko‘nikib qolgan. Biz qishloqda har bir uyda vanna, zamonaviy hojatxona bo‘lishini hatto orzu qilmasdik, go‘yoki bu faqat shaharga xos bo‘lgan sharoitlarday qiynalib yurganimizga hayron qoldim.

Yana bir masala – bolalar, ularning bilim olishga qiziqishi kuchaygani bilan bog‘liq. Qishloqda paytim Angliyadagi hamkasb, do‘stlarim bilan suhbatlashishimga (tabiiyki, ingliz tilida) to‘g‘ri keldi. (Aytgancha, internet tezligi oshganini aytmasam bo‘lmas). Suhbatimni tugatgach, maktabda o‘qiydigan jiyanlarim telefondagi suhbatim mavzuiga qo‘shimchalar kiritdi. Shunda tushundimki, ular allaqachon fikrlarimni uqib, ma’nosini chaqib o‘tirishibdi. O‘n yillab ingliz tilini o‘rgansak-da, maktabni tugatib ham bir jumlani eplab gapira olmaganimiz esimga tushdi.

Samarqand shahridagi sayohatim davomida uning misli ko‘rilmagan qiyofaga kirganini ko‘rib, faxrlandim. Samarqand shahridagi ko‘chalarning tubdan o‘zgargani, yo‘llari-yu, turli servis xizmatlar, ko‘cha landshafti – hamma-hammasi kishiga zavq beradi. Xotiramizda chiqindi to‘la ko‘chalari-yu, “po‘sht, arava” qichqiriqlari bilan qolib ketgan tarixiy maskan Siyob bozori atroflarini tanimadim hatto.

"Boqiy shahar", Konigil turizm qishlog‘i esa Samarqandning yana bir mo‘jizaviy maskaniga aylanibdi. Bu yerdagi tabiat bilan uyg‘unlashgan tarixiylik va zamonaviylik kishini maftun etadi.

Bu maskanlarda bo‘la turib, u yerlar nafaqat xorijiy, balki mahalliy sayyohlar bilan ham gavjum ekaniga guvoh bo‘ldim. Aholining sayohatga qiziqish bildirayotgani, oilaviy dam olishga intilayotgani bu oddiy gap emas. Bu odamlarning yashash tarzi, turmush sharoiti ancha yaxshilanganidan darak beradi.

To‘g‘ri, hali servis sohasida biroz kamchiliklar kuzatildi, yolg‘iz sayohatga chiqqan chet elliklardan ko‘proq pul undirish holatlari haliyam bor. Bu nuqsonlarni ham vaqti bilan bartaraf etish lozim, deb o‘ylayman.

Xullas, Samarqand menga butunlay yangicha qiyofa va ruhda namoyon bo‘ldi. Bu yerdan Buyuk Britaniyaga ketgim kelmadi hatto.

Zohida BOYMATOVA,
Londondagi GETJAR LIMITED kompaniyasi hisobchisi.

Har qanday jamiyatning rivojlanishida madaniyatlararo muloqotning o‘rni bor. Shu bois respublikamizda madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishga, u bilan bog‘liq chora-tadbirlarni keng tatbiq etishga katta e’tibor berilmoqda. Ayniqsa, bu borada xorijiy tillarni o‘qitishda madaniyatlararo muloqotning tarixini o‘rganish, asrlar davomida o‘zbek madaniyati va boshqa madaniyatlarning bir-biri bilan aloqalarini mustahkamlash muhim ahamiyatga ega. Chunki madaniyatlararo aloqalar o‘rnatish davlatning ravnaqi uchun xizmat qiladi.

Madaniyatlararo muloqot taraqqiyot xizmatida



Samarqand davlat chet tillari institutining ingliz tili leksikologiyasi va stilistikasi kafedrasi tomonidan 2024-yilning 10-11-oktabr kunlari “Madaniyatlararo muloqotning rivojlanish tarixi va bugungi kundagi ahamiyati” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazilishi rejalashtirilmoqda. Anjumanda til, matn va nutqni tahlil qilish, xalqaro til makonida ingliz tili, etnomadaniy tadqiqotlar va uning tilda namoyon bo‘lishi: lingvistik va lingvodidaktik jihatlari, tarjimashunoslikning nazariy va amaliy masalalari va madaniyatlararo muloqot, XXI asrning innovatsiyalari kabi mavzular alohida shu’balarda muhokama qilinadi.

Anjumanda Turkiya, Qirg‘iziston, Hindiston, Malayziya, Amerika qo‘shma shtatlari, Misr universitetlari vakillari ishtirok etishi kutilmoqda. Umumiy yalpi yig‘ilish, shu’balar yig‘ilishi va kichik guruhlarda ma’ruza o‘qigan ishtirokchilarga sertifikatlar topshiriladi.

N.AMRIDDINOVA,
Samarqand davlat chet tillari instituti ingliz tili leksikologiyasi va stilistikasi kafedrasi mudiri.

Reytingi baland tadbirkorga imtiyoz oshadi

Joriy yilning 1-fevralidan boshlab tadbirkorlarning barqarorlik reytingi joriy etildi. U soliqlarni o‘z vaqtida to‘lab, qonunchilik talablariga amal qilgan holda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlarga yanada qulay shart-sharoit yaratish va ularni rag‘batlantirishni nazarda tutadi.

Jomboy tumanidagi “Monchico” xorijiy korxonasi bolalar gigiyenik vositalarini ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadi. Bugungi kunda Birlashgan Arab Amirliklari, Tojikiston, Qozog‘iston, Rossiya hamda Qirg‘iz Respublikalariga mahsulot eksport qilmoqda.

Joriy yil korxona faoliyatini yanada kengaytirib, quruq salfetka hamda yangi turdagi tagliklarni ishlab chiqara boshladi. Shunday bo‘lsa-da, barqarorlik reytingida ko‘rsatkichi pastligi sababli qator soliq imtiyozlaridan foydalana olmayotgan edi. Tuman soliq inspeksiyasining maslahat va ko‘magi bilan korxona reytingda ko‘tarilishni boshladi hamda faoliyatini yanada rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

REKLAMA, E’LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e‘lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti quyidagi kafedralar bo‘yicha bo‘sh lavozimlarga

TANLOV E’LON QILADI

KAFEDRA MUDIRI LAVOZIMIGA:

1. Boshqaruv nazariyasi va axborot xavfsizligi kafedrasi (fan nomzodi, PhD, dotsent).
2. Sun’iy intellekt va axborot tizimlari kafedrasi (fan nomzodi, PhD, dotsent).
3. Davlat huquqiy fanlar kafedrasi (fan nomzodi, PhD, dotsent).

KAFEDRA PROFESSORI LAVOZIMIGA:

1. Fizikaviy va kolloid kimyo kafedrasi – 1 stavka.
2. Tuproqshunoslik kafedrasi – 1 stavka.
3. Matematik modellashtirish kafedrasi – 3 stavka.
4. Sun’iy intellekt va axborot tizimlari kafedrasi – 1 stavka.
5. Ekologiya va hayot xavfsizligi kafedrasi – 1 stavka.
6. Pedagogika va umumiy psixologiya kafedrasi – 1 stavka.
7. Mumtoz adabiyot tarixi kafedrasi – 2 stavka.
8. Istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi kafedrasi – 1 stavka.
9. Xorijiy tillar kafedrasi – 0,5 stavka.
10. San’atshunoslik kafedrasi – 0,75 stavka.

KAFEDRA DOTSENTI LAVOZIMIGA:

1. Zoologiya kafedrasi – 1 stavka.
2. Polimerlar kimyosi va kimyoviy texnologiya kafedrasi – 1 stavka.
3. Botanika kafedrasi – 1 stavka.
4. Optika va spektroskopiya kafedrasi – 1 stavka.
5. Yadro fizikasi va astronomiya kafedrasi – 1 stavka.
6. Inson resurslarini boshqarish kafedrasi – 0,75 stavka.
7. Raqamli iqtisodiyot kafedrasi – 2 stavka.
8. Tarmoqlar iqtisodiyoti kafedrasi – 1 stavka.
9. Meva-sabzavotchilik va uzumchilik kafedrasi – 1 stavka.
10. Matematik fizika va funksional analiz kafedrasi – 2 stavka.
11. O‘zbekiston tarixi kafedrasi – 1 stavka.
12. Jahon tarixi kafedrasi – 2 stavka.
13. Pedagogika va umumiy psixologiya kafedrasi – 4 stavka.
14. Amaliy psixologiya kafedrasi – 2 stavka.
15. Mumtoz adabiyot tarixi kafedrasi – 1 stavka.
16. O‘zbek tilshunosligi kafedrasi – 1 stavka.
17. Fakultetlararo rus tili kafedrasi – 1 stavka.
18. Ingliz tili, tilshunosligi va adabiyoti kafedrasi – 1 stavka.
19. San’atshunoslik kafedrasi – 1,25 stavka.
20. Jismoniy tarbiya va sport kafedrasi – 3 stavka.
21. Fuqarolik huquqiy fanlar kafedrasi – 1 stavka.

KAFEDRA KATTA O‘QITUVCHISI LAVOZIMIGA:

1. Matematik analiz kafedrasi – 1 stavka.
2. Differensial tenglamalar kafedrasi – 1 stavka.
3. Rus va umumiy tilshunoslik kafedrasi – 1 stavka.
4. San’atshunoslik kafedrasi – 1 stavka.

KAFEDRA ASSISTENTI LAVOZIMIGA:

1. Zoologiya kafedrasi – 1 stavka.
2. Organik sintez va bioorganik kimyo kafedrasi – 2 stavka.
3. Polimerlar kimyosi va kimyoviy texnologiya kafedrasi – 1 stavka.
4. Umumiy fizika kafedrasi – 1 stavka.
5. Differensial tenglamalar kafedrasi – 2 stavka.
6. Ehtimollar nazariyasi va amaliy matematika kafedrasi – 1 stavka.
7. Dasturiy injiniring kafedrasi – 1 stavka.
8. Amaliy psixologiya kafedrasi – 1 stavka.
9. Pedagogika va umumiy psixologiya kafedrasi – 1 stavka.
10. Rus va chet el adabiyoti kafedrasi – 1 stavka.
11. Fakultetlararo rus tili kafedrasi – 4,25 stavka.
12. Rus va umumiy tilshunoslik kafedrasi – 5,75 stavka.
13. San’atshunoslik kafedrasi – 2,75 stavka.
14. Jismoniy tarbiya va sport kafedrasi – 1 stavka.
15. Jinoiy huquqiy fanlar kafedrasi – 1 stavka.

TALABGORLAR TANLOVDA QATNASHISH UCHUN QUYIDAGI HUJJATLARNI TAQDIM ETISHLARI LOZIM:

1. Rektor nomiga ariza.
2. Xodimlarni hisobga olish bo‘yicha so‘rovnoma.
3. Oliy ma’lumoti, ilmiy darajasi haqidagi diplomlari, ilmiy unvoni haqidagi attestati nusxalari.
4. Tasdiqlangan ilmiy, ilmiy-uslubiy ishlari ro‘yxati.
5. Malaka oshirganligi to‘g‘risidagi sertifikat.

Hujjatlar gazetada e’lon chop etilgan kundan boshlab bir oy ichida qabul qilinadi.

MANZIL: Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining to‘qqiz qavatli binosi, 312-xona. Universitet kengashi kotibi. Telefon: +99866-240-38-43.

DA’VOLAR BO‘LSA...

Past Darg‘om tumanidagi “AKMAL-BAO” fermer xo‘jaligi (STIR: 204387111) o‘z tashkiliy-huquqiy shaklini “AKMAL-BAO” mas’uliyati cheklangan jamiyatiga o‘zgartiradi. “AKMAL-BAO” mas’uliyati cheklangan jamiyati “AKMAL-BAO” fermer xo‘jaligining barcha huquq va majburiyatlari bo‘yicha huquqiy vorisi hisoblanadi.

Shu munosabat bilan unga bildiriladigan barcha da’volar gazetada e’lon chop etilgach, bir oy davomida qabul qilinadi.

Manzil: Past Darg‘om tumani Kimyogarlar qo‘rg‘oni “Kamolot” MFY.

* * *

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo‘raqulovich notarial idorasida marhum Risqulov Ashirboy Tallibo-yevichga (2024-yil 31-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Muhammadiyev Farhod Jo‘raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko‘chasi, 73-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Umarov Akmaljon Shavkatovich notarial idorasida marhum Alimov Samariddin Najmiyevichga (2021-yil 26-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Umarov Akmaljon Shavkatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko‘chasi, 17-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Hazratqulov Mahmud Mo‘minqulovich notarial idorasida marhum Raxmatov Mamurjon Axmedovichga (2023-yil 9-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Hazratqulov Mahmud Mo‘minqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko‘chasi, 36-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Jo‘rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Xamrokulov Metinga (2020-yil 5-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Jo‘rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O‘zbekiston ko‘chasi, 35-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Shukurova Lobar Olimjon qizi notarial idorasida marhum Ismailova Feruza Abdullayevnaga (2024-yil 7-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Shukurova Lobar Olimjon qizi notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Spitamen shohko‘chasi, 157-uy. Mo‘ljal: Samarqand viloyat IIB YHXB, shahar mudofaa ishlari bo‘limi.

* * *

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Eshkuvatov Farxod Abdumannonovichga (2024-yil 11-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko‘chasi, 73-uy.

* * *

BEKOR QILINADI

Payariq tumanidagi “UCH AKA-UKA DO‘KONI” oilaviy korxonasining (STIR: 308636135) dumaloq muhri va burchak tamg‘asi yo‘qolganligi sababli bekor qilinadi.

* * *

Sotuvchi Oblokulov Baxodur Orifkulovich va sotib oluvchi Akramov Baxtiyor Toxirovichlar o‘rtasida Samarqand shahri Kurchatov ko‘chasi 9-v uyda joylashgan avtomobillarni ta'mirlash ustaxonasi binosining 31,60 foiz qismi (umumiy maydoni 226,10 kv.m., foydali maydoni 373,13 kv.m., egallab turgan yer maydoni 226.10 kv.m.) uchun tuzilgan, Samarqand viloyat xo‘jalik hisobidagi yer tuzish va ko‘chmas mulk kadastri xizmati davlat unitar korxonasidan 2008-yil 30-dekabrda tasdiqlanib, 243-raqam bilan ro‘yxatga olingan ko‘chmas mulkning oldi-sotdi shartnomasining sotib oluvchidagi nusxasi yo‘qolganligi sababli bekor qilinadi.

* * *

TOPGANGA MUKOFOT!

Samarqand shahridagi “ESER YAPI” mas’uliyati cheklangan jamiyatiga qarashli davlat raqami 30 EA 740 bo‘lgan avtogreyderning texnik pasporti Samarqand shahri hududida yo‘qolgan. Ushbu hujjatni topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so‘raymiz.

Telefon: +99894-602-42-22.

* * *

Fuqaro Umarova Fotima Ibragimovnaning xorijga chiqish pasporti (FA 1232856) Past Darg‘om tumani hududida tushirib qoldirilgan. Ushbu hujjatni topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so‘raymiz.

Telefon: +99899-129-39-80.

* * *

HOVLI SOTILADI!

Samarqand shahri Yangi Xayrobod mahallasi, Mendeleyev ko‘chasi, 5-uy manzilida joylashgan 12 sotixli hovli sotiladi. 5 xonali va sanitar to‘plami mavjud.

Mo‘ljal: Samarqand davlat tibbiyot universitetining 1-klinikasi eski darvozasi.

Murojaat uchun telefonlar: +99866-238-66-96, +99833-723-49-49.

Millatimiz oydinlari

BUYUK PUBLITSIST, MUHARRIR, NOSHIR

(1-maqola)

Toshkent davlat universiteti (O‘zMU)ning jurnalistika fakultetida o‘qiy boshlaganimizda sobiq sovet ittifoqida qayta qurish avjga chiqqan, mustaqillik arafasidagi erkinlik nasimlari esayotgan fursatda jadidlar haqida haqiqatlar ochila boshladi. Shunday kunlarning birida matbuot tarixidan dars o‘tgan dotsent bilan Turkiston matbuoti “Iskra” (bolsheviklarning ilk gazetasi)dan boshlanishi borasida rosa bahslashganmiz.

Aytganlaringni avval ilmiy jihatdan asoslab ber, – deya bahsga g‘olibona nuqta qo‘ygandi marksizm-leninizm g‘oyalari bilan tarbiyalangan domla.



Shu gap turtkisi bilan eski nashrlarni izlab, Alisher Navoiy nomidagi kutubxonada borligini aniqlaganmiz va u yerga maxsus xat orqaligina kirish mumkinligini eshitib, xayoldan “bekorga yashirilmagan”, degan o‘y ham o‘tganligi haqiqat. Sirtdan qaraganda bu nashrlar kutubxonaning nodir qo‘lyozmalar bo‘limida asralgan. Bir tomondan, to‘g‘ri qilishgan yashirib. Bizgacha yetib keldi. Alalxusus, o‘sha manzilda bolalikda ko‘rganimiz “Oyina” bilan “yuzlashganmiz”, “Samarqand” bilan “tanishganmiz”, Behbudiy bilan dillashganmiz, qanday tarixdan voz kechtirilganimizni anglay boshlaganmiz.

O‘tgan o‘ttiz besh yil fursatda kommunist domla ham bu olamni tark etdi. Biroq undan norizo ham emasmiz. Negaki, bu fursat Turkistonning ozodligi uchun kurash tarixi zarvaraqlaridan topganlarimiz – hurriyat orzumandi, millat karvonboshisi, ulug‘ ma’rifatparvar, betakror salohiyat va taqdir sohibi bo‘lgan bobomizning ko‘p qirrali faoliyatidan, donishmandligi, jasorati va matonatidan ogoh etdi.

JADIDCHILIK VA BEHBUDIY

Diniy va dunyoviy bilimlar sohibi

Mahmudxo‘ja tug‘ilgan paytda Samarqandni chor Rossiyasi o‘z mustamlakasiga aylantirib bo‘lgan edi.

Samarqand madrasalarida tolibi ilmlarga tahsil berib kelgan mudarrislar va ularning oila a’zolari bosqinchilar qatag‘onidan asrash maqsadida Zarafshon daryosi va uning irmoqlari hisoblangan Siyob kanali bo‘ylaridagi vaqf yerlarga ko‘chiriladi.

Muarrixlar ta’kidicha, madrasalar XI asrdan boshlab Movarounnahrda yetakchi o‘quv yurtiga aylangan va ular vaqf hisobiga ta’sis etilgan. Vaqf daromadlaridan madrasalarda mudarrislar maosh bilan, talabalar stipendiya, o‘quv jihozlari va turarjoy bilan ta’minlangan.

Vaqfning nima ekanligini “Islom ensiklopediyasi”da berilgan qisqacha izoh mazmunidan anglash mumkin: *“Musulmon mamlakatlarida davlat yoki ayrim shaxslar tomonidan diniy ehtiyoj yoki xayriya ishlari uchun ajratilgan mol-mulk Vaqfnoma orqali rasmiylashtiriladi. Yer-suv, uy-joy, maktab, masjid, shifoxona va boshqalar vaqf mulki bo‘lishi mumkin... Vaqf mulkini shariat qonuni bo‘yicha davlat boshlig‘i yoki qozi nazorat qiladi”*.

Behbudxo‘ja Solihxo‘ja o‘g‘li ham Zarafshon daryosi yaqinidagi Baxshitepa qishlog‘iga o‘rnashib, u yerda imom-xatiblik qiladi.

Tarixchi va arxeolog olim Amriddin Berdimurodovning o‘rganishlari natijasida ma’lum bo‘ldiki, chor Rossiyasi 1868-yil Samarqandni bosib olguniga qadar dushmanga qarshi kurash masalasida aholi ikki guruhga bo‘linib qoladi. *“Birinchi guruh: savdogarlar, boylar hamda shahar rahbarlari urushsiz taslim bo‘lish tarafdori edilar. Ikkinchi guruh: dindorlar, madrasalarning talabalari va oddiy xalq yovga qarshi oxirgi tomchi qon qolguncha kurashish tarafdori edilar”* (Berdimurodov A. G‘oliblik yodgorligi yoxud Samarqandning oqposhsho tomonidan bosib olinishi // “Turkiston” gazetasi, 1992-yil 18-avgust).

Olimning ta’kidicha, kurashni maqsad qilganlar mahalliy mutasaddilar (birinchi guruh) tomonidan jazolanadilar...

Behbudxo‘ja Solihxo‘ja o‘g‘li kurashga otlanganlar qatorida bo‘lsa-da, mavjud holatni, ayniqsa, amirlikning harbiy ahvolini, qurol-aslahalar o‘ta eski ekanligini tahlil qilgan oydinlar qatorida bo‘lgan...

Samarqand mustamlakachilar qo‘liga o‘tgach, ularning zulmi nafaqat shahar, balki chekka qishloqlar aholisigacha yetib boradi. O‘z davrining ziyolisi yuzaga kelgan ahvolni ko‘rib, anglab avomdan-da qattiqroq aziyat chekadi. Ota-ona ana shu dardlarni shuurlarida olib yurgan kezlarda Mahmudxo‘ja dunyoga keladi. Alalxusus, yurt qayg‘usi ota pushti kamaridan, ona sutidan farzandiga o‘tadi, voyaga yetkazadi.

Mahmudxo‘janing ulg‘ayish davrini batafsil yoritish uchun ancha sahifalar sarf bo‘ladi. Shu bois otasi va oila atrofidagi (tog‘asi) muhit ta’sirida o‘qib, qanday tarbiya topganini uning shogirdi hamda izdoshi Hoji Muin maqolasidan iqtibos keltirish bilan kifoyalanamiz:

“Behbudiy afandi 6–7 yoshg‘a kirgach, o‘zining katta tog‘asi Muhammad Siddiq huzurida o‘qub xat va savodini chiqardi. So‘ngra o‘zining otasi Behbudxo‘ja qori qildurmoq maqsadi bilan unga oz-oz Qur’on o‘rgatib yodlata boshladi. 3–4 yil ichida Behbudiy afandi Qur’onni butun yodladi va ramazon kechalarida xatmlarg‘a o‘tub yurdi. Behbudiy afandi uch kechalik bir xatmda yolg‘uz birgina xato qilg‘on, derlar. Bu esa uning quvvai hofizasi na darajada ekanligini ko‘rsatadi” (Hoji Muin. Mahmudxo‘ja Behbudiy // “Uchqun” jurnali, 1923-yil, 1-son).

Xatmi Qur’on zamonaviy izohlarda *“Qur’onni batamom o‘qish va shu munosabat bilan o‘tkaziladigan diniy marosim. Ramazon oyida, tarovih namozida Qur’oni karimni avvalidan oxirigacha tilovat qilib chiqilishi ham Xatmi Qur’ondir”*, deyiladi. Hoji Muindan olingan iqtibosda Behbudiyning muqaddas kitobimizni boshidan oxirigacha o‘qiganligi anglashiladi. Xalqda har bir davrning o‘ziga xos qiyoslari bo‘ladi. Mahmudxo‘janing uch kechalik xatmda birgina xato qilgani o‘z davri uchun ham, bugungi davr islom olami uchun ham ahamiyatlidir.

Kelgusida «Muxtasar tarixi islom» («Islomning qisqacha tarixi»), «Amaliyoti islom» kabi qo‘llanmalarni yaratishi uning islom dini tarixi va dunyo bo‘yicha amal qilishi bo‘yicha ham katta bilimga ega bo‘lganligidan dalolat bo‘ladi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, Mahmudxo‘ja bolaligidan ilmga chanqoq, dunyoning rivojlanishiga omil bo‘lgan yangi bilimlarni o‘zlashtirishga harakat qilgan. Boshqacha aytganda, Qur’oni karimni yod olgach, keyingi bosqichda zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirishga kirishgan. Fikrimiz isboti sifatida Hoji Muindan ko‘chirma keltirishda davom etamiz.

“Behbudiy afandi yolg‘uz qoriliq bilan qanoatlanmay, 15 yoshlarida o‘zining tog‘asi mufti mulla Odil huzurida dars o‘qurga kirishdi. Arabiy sarfu nahvdan “Kofiya” va “Sharhi mullo”ni, mantiqdan “Shamsiya”ni, fiqhdan “Muxtasar ul-viqoya”ning birinchi daftarini va bir oz “Hoshiya”ni mazkur zotning halqai tadrisida o‘qudi. Hisob ilmini ham (masohatg‘acha) shul kishidan o‘rgandi” (Hoji Muin. Mahmudxo‘ja Behbudiy // “Uchqun” jurnali, 1923-yil, 1-son).

Shuningdek, Behbudiyning o‘zi Samarqand va Buxoro madrasalarida tahsil olganligini “Туркистанские ведомости” gazetasi muxbiriga bergan intervyusida ta’kidlaydi. Bugungi nuqtai nazar bilan qaraganda, u oliy ta’lim tizimining kamida bakalavr va magistr darajasini yoqlagan. Ustozi mufti mulla Odilning so‘ziga ko‘ra, Behbudiy yoshlik chog‘ida o‘tkir zehnli va o‘qib-o‘rganishga ishtiyoqi juda baland bo‘lgan. Ustozining bir marta o‘rgatishi uning xotirasida muhrlangan. *“O‘zi g‘oyat halim, adablik, oz so‘zlik va o‘yin-kulguni sevmayturg‘on bo‘lg‘on”* (Hoji Muin. Mahmudxo‘ja Behbudiy // “Uchqun” jurnali, 1923-yil, 1-son).

Halim SAIDOV,
filologiya fanlari doktori,
professor.

Mahallada kutubxona tashkil qilish uchun budjetdan mablag‘ ajratilmaydi. Ammo istak bo‘lsa, bunga imkon bor. Primkent mahallasi xotin-qizlar faoli Madina Bobojonova nodavlat notijorat tashkilotlar, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi, foydali tashabbuslari uchun ularga zarur mablag‘ ajratilishi haqida ustozlaridan, oqdaryolik faollardan bilib oldi. O‘ylagan rejasini amalga oshirish uchun ularning ko‘magida loyiha yozib ko‘rdi, bilmaganlarini so‘radi, o‘rgandi. Niyati esa shu mahalla ahli uchun kutubxona tashkil etish. Hududidagi xotin-qizlarni kitobga qiziqtirish, ularning hayotini aynan kitob orqali o‘zgartirishni niyat qiladi. Buni qarangki, harakatlari zoye ketmadi, loyihasi xalq deputatlari viloyat Kengashi huzuridagi Jamoat fondining 50 million so‘m miqdoridagi grantiga loyiq deb topildi.

Pul bor, faollik sustroqmi?

“Kitoblar yordamida davolayapmiz”



Primkent mahallasida kutubxona tashkil etilishi odamlarning hayot tarziga ijobiy ta’sir qila boshladi.

- Mahallaning o‘zida bo‘sh xona bo‘lgani uchun asosiy muammo uni kutubxonaga mos tarzda jihozlash, kitoblar keltirishdan iborat edi,- deydi Madina Bobojonova. – Viloyat jamoat fondidan 50 million so‘m miqdoridagi mablag‘ yutib olganimizdan so‘ng jihoz, mingga yaqin kitob sotib oldik. Hozir kutubxonamizga a’zo bo‘lganlar soni ming nafardan oshdi. Eng muhimi, biz mahalladagi notinch oilalar yoki muammosi bor oila a’zolarini ham kitoblar yordamida “davolayapmiz”. Xo‘sh, bu qanday bo‘lyapti? Yaxshi bilasiz, insonning irodasini toblash, dunyoqarashini kengaytirish, o‘z muammolariga yechim topishda kitobdan ko‘ra yaxshi maslahatgo‘y, undan ko‘ra foydaliroq do‘st yo‘q. Shuning uchun aholi bilan suhbatlarimiz, turli ma’naviy tadbirlarimizni kutubxonada o‘tkazyapmiz. Bilasizmi, bir necha marta o‘z joniga qasd qilgan ayolda ham kitobga mehr uyg‘ota oldik. Hozir uning oilasida yaxshi yangiliklar sodir bo‘ldi.

Darvoqe, ushbu mahalla shu bilan kifoyalanib qolgani yo‘q. Joriy yilda ular Oliy Majlis huzuridagi Jamoat fondining 70 million so‘mlik grantiga sazovor bo‘ldi. Yaqin kunlarda mazkur qishloqda shu mablag‘ evaziga ko‘rkam IT markaz ish boshlaydi. Unda turli yoshdagi bolalar kompyuter savodxonligini o‘rganishi, dasturiy mashg‘ulotlar, qolaversa, til o‘rganish to‘garaklarida qatnashishi mumkin bo‘ladi.

Xabaringiz bor, bir necha yildan beri xalq deputatlari viloyat Kengashi huzuridagi jamoat fondi tomonidan nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari uchun grant tanlovlari e’lon qilinmoqda. Qolaversa, Oliy Majlis huzuridagi fond tomonidan ham e’lon qilinayotgan qator grantlar mavjud. Lekin ushbu grantlarda Primkentdagi faollar kabi qatnashib, mahallasiga yangiliklar kiritayotganlar nega kam?

MAVZULAR RANG-BARANG

- O‘tgan yil fondimiz tomonidan nodavlat notijorat tashkilotlarini qo‘llab-quvvatlash, ularning faoliyatini rivojlantirish kabi masalalarda qator amaliy ishlar olib borildi, - deydi xalq deputatlari viloyat Kengashi huzuridagi jamoat fondi rahbari Doston Malikov. – Xususan, 20 ta yo‘nalish bo‘yicha davlat grantining to‘rtta tanlovi o‘tkazildi. Unda 58 ta NNT, OAV va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari 59 ta loyiha bilan ishtirok etdi. Shundan 20 ta ijtimoiy ahamiyatli dastur va loyihalarning umumiy qiymati 1 milliard 120 million so‘mni tashkil etgan bo‘lib, ushbu loyihalar jamoat komissiyasining tegishli qarorlari bilan qo‘llab-quvvatlandi. Aytish kerakki, mavzularimiz jamiyatning turli qatlamlari muammolari yechimiga qaratilgan, biror bir soha chetlab o‘tilmaydi. Bir yilda viloyat fondining o‘zi to‘rtta katta mavzuni qamrab olgan holda tanlovlar e’lon qilmoqda.

Bu yil ham hozirgacha birinchi tanlovimiz 26-fevraldan – 29-martgacha “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili” Davlat dasturini amalga oshirishda NNTlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini hamda OAVni qo‘llab-quvvatlash” mavzusida o‘tkazilgan bo‘lib, tanlovga 26 ta loyiha qabul qilingan. Komissiyaning qaroriga muvofiq, 5 ta loyiha g‘olib deb topilgan va 295 million so‘mga moliyalashtirilgan.

Ikkinchi tanlov 3-maydan – 3-iyungacha “Jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish hamda jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda NNTlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash” mavzusida o‘tkazilgan bo‘lib, jami 11 ta loyiha qabul qilingan. 5 ta loyiha g‘olib deb topilgan va 300 million so‘mga moliyalashtirilgan.

Nodavlat notijorat tashkilotlari bilan bir qatorda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari ham ushbu grant tanlovlarida faol ishtirok etishini ta’minlash maqsadida joylarda seminar-treninglar, uchrashuvlar o‘tkazib borilmoqda. Shunday bo‘lishiga qaramay, mahallalardan tushayotgan loyihalar hamon sanoqli bo‘lib qolmoqda.

40 O‘RNIGA 80

“Tadbirkor ayollar” uyushmasining Nurobod tumani bo‘limi esa aynan shunday grantlar evaziga 80 nafarga yaqin bitiruvchiga kasb-hunar o‘rgatdi. Loyihada 40 nafar bitiruvchi nazarda tutilgan bo‘lsa, amalda bu raqam 80 ga yetdi. Ushbu tashkilot o‘tgan yili viloyat jamoat fondining 60 million so‘m miqdoridagi mablag‘iga ega bo‘lgan.

- Tumandagi Sazag‘on, Oltinsoy, Nurbuloq, Olg‘a mahallalaridagi bitiruvchi qizlar "ustoz-shogird" an’anasi asosida mahoratli tikuvchilarga biriktirildi, - deydi uyushmaning tuman bo‘limi rahbari Gulshan Mirzayeva. – O‘tgan yilning sentabr oyidan boshlab tikuvchilikni o‘rgana boshlagan qizlarga maxsus sertifikatlar ham berildi. Faqat shu bilan kifoyalanib qolmoqchi emasmiz. Hozirda bu qizlar bitiruvchi bo‘lgani uchun aksariyati oliy ta’lim muassasalari imtihonlarini topshirgan. Natijasi aniq bo‘lgach, ularning muhtojlariga tikuvchilik hunarini davom ettirishlari uchun mahallalari bilan hamkorlikda subsidiya ajratish niyatidamiz.

Xullas, ozgina bo‘lsa-da, harakat qilayotgan jamoat tashkilotlari jamiyat uchun foydali bo‘lgan loyihalarni amaliyotga tatbiq etishlari yo‘lida moliyaviy qo‘llab-quvvatlov masalasida muammo bo‘lmayapti. Muammo – ularning bu imkoniyatni o‘z vaqtida tushunib yetmayotganida, desak adashmaymiz.

Gulruh MO‘MINOVA.

Mulohaza

Ayol – ma’rifat timsoli

Yoshim saksondan oshganligi bois bunday xulosani aytishga ma’naviy haqim bor, deb o‘ylayman. Negaki, otamiz qat’iyat, ibrat, onamiz esa ma’rifat maktabi vazifasini o‘tagan. Ona o‘z farzandiga yashashni o‘z hayoti misolida ko‘rsatadi, har bir voqelikda uning mohiyatini yotig‘i bilan tushuntiradi.

Esimda, bundan 50 yil avval sinfdoshlarimiz uchrashganida ayollarimizga alohida hurmat ko‘rsatdik. Chunki ularning ko‘pchiligi muallima, ziyoli edi. Buning ustiga ularning o‘sha paytda jamiyatda tutgan o‘rniga, yurish-turishiga, ro‘zg‘ordagi tutumiga havas qilganmiz. Hozirda ham Payariqdagi Gulnora Alimova, Barno Nosirova singari ayollar rahbarlik qilayotgan maktablarda bo‘lganimda ana shu fikrimga amin bo‘ldim.

Ayol o‘zining nafosati, shirin so‘zi, muhimi, samimiyati bilan ibrat ko‘rsatadi, tarbiyalaydi. Shuning uchun "Zarafshon" sahifalarida ham ayol imzosi bilan chop etilgan maqolalarni alohida diqqat bilan o‘qiyman, zavqlanaman. Davlatimiz rahbarining taklifi bilan bir nechta tumanlarga xotin-qizlardan hokim tayinlangani ham ayollarning jamiyatdagi o‘rnini ko‘rsatib turibdi.

Donishmandlardan biri "Agar o‘g‘lingni o‘qitsang, olim bo‘ladi, qizingni o‘qitsang, jamiyatni ham ma’rifatli qiladi", deb aytgan ekan. Darhaqiqat, bugun ishtiyoq bilan o‘qigan, yaxshi tarbiya ko‘rgan va iste’dodi bilan jamiyatimizga tanilayotgan xotin-qizlar ko‘p. Xususan, Diyora Keldiyorovaning olimpiada chempioni bo‘lishi O‘zbekistonda ayol qadri nechog‘lik sarbaland bo‘layotganligini ko‘rsatib turibdi.

Umuman, ayol rahbar bo‘lgan tashkilotga borsangiz, nafaqat uning samimiy munosabatidan, balki o‘sha idoradagi muhitdan, go‘zallikdan bahri dilingiz ochiladi. Kelgusida ham bunday faol opa-singillarimizning iqtidorini hurmat qilib, ularni rahbarlikka dadil taklif etishimiz zarur.

Turdi TURSUNOV,
Payariq tumani.

SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

9-OKTABR

Erali RIZAYEV – 1967-yilda Narpay tumanida tug‘ilgan. “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan chorvador” faxriy unvoni sohibi.

10-OKTABR

Mubarro ISMOILOVA – 1953-yilda Urgut tumanida tug‘ilgan. O‘zbekiston Respublikasi xalq o‘qituvchisi.

Ahmadjon QURBONOV – (1921-1945) Jomboy tumanida tug‘ilgan. Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi. Qahramon.

Ma’ruf JALIL – (1936-2004) Kattaqo‘rg‘on tumanida tug‘ilgan. Taniqli shoir va tarjimon. “El-yurt hurmati” ordeni sohibi.

11-OKTABR

Shavkat VOHIDOV – (1932-2008) Samarqand shahrida tug‘ilgan. Akademik. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi. Fizik-olim.

MATBUOT UYI
Zarafshon
САМАРКАНДСКИЙ ВЕСТНИК

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 11 710 nusxada chop etildi. Buyurtma 524. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, **REKLAMA VA E’LONLAR:** (66) 233-91-56
BO‘LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug‘ Tursunov ko‘chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo‘limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko‘chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir: A.SHERXOLOV.
Navbatchi: X.ERNAZAROVA.
Sahifalovchi: A.ISMOILZODA.

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X

Sotuvda narxi kelishilgan holda